# YOSHLARDA QADRIYAT TUSHUNCHASINING RIVOJLANISHIDA TA’LIM VA TARBIYANING O’RNI.

**Xoliqova Inobatxon Bo‘ri qizi**
**Farg‘ona davlat universiteti “Pedagogika nazariyasi va tarixi”mutaxassisligi magistranti**

**Annotatsiya:**Mazkur tezisda yoshlarda qadriyat tushunchasining shakllanishi va rivojlanishida ta’lim hamda tarbiyaning tutgan muhim o‘rni yoritib beriladi. Unda ta’lim jarayonining yoshlar dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy qarashlari va ijtimoiy faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, oila, ta’lim muassasalari va ijtimoiy muhitning tarbiyaviy ta’siri orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish masalalariga e’tibor qaratiladi. Tezisda ta’lim va tarbiyaning uzviyligi yoshlarni ma’naviy barkamol, mas’uliyatli va jamiyat hayotida faol shaxs etib shakllantirishning muhim omili ekanligi asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:qadriyat,**ta’lim,tarbiya,ma’naviy-axloqiy qarashlari,oila,ijtimoiy muhut,milliy qadriyatlar,umuminsoniy qadriyatlar,barkamol shaxs,motivatsiya.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi bilan ta’lim- tarbiya sohasiga qator yangiliklar va shu bilan birga xal etilishi zarur bo’lgan muammolar yuzaga keldi. Ayrim yoshlar orasida ahloqqa, mehnat, bilim olishga nisbatan munosabatning yuzakilashib borayotgani, ta’lim-tarbiya jarayonida ba’zi bir kamchiliklarga yo’l qo’yilishi sababli ular orasida bezorilik, ahloqsizlik kabi salbiy holatlar uchrab turibdi.Tarbiya - bu shaxsning ijtimoiy, ma’naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma’naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta’sir ko’rsatish jarayonidir.

Bugungi kunda ko’p yillik tarixga ega bo’lgan milliy ahloqimizning azaliy mezonlarini tiklash orqali xalollik, to’g’riso’zlik, or-nomuslilik, iffatlilik, insonparvarlik, hamjamiyatlilik, vatanparvarlik, fidoiylik, sadoqat kabi ko’pdan-ko’p go’zal insoniy fazilatlarni kamol toptirish vaqti keldi. Tarbiyaviy chora-

tadbirlar, yo’l va usullarning markaziga o’z milliy manbalarimizga, iymonu-e’tiqodimizga, qadr- qimmatimizga muvofiq keladigan ahloqiy talablarni yosh avlod oldiga qo’yishimiz zarur. Ta’lim jarayoni yoshlarda ilmiy bilimlar bilan bir qatorda ijtimoiy faollik, mas’uliyat, adolat va vatanparvarlik kabi qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiya esa ushbu qadriyatlarning amaliy hayotda namoyon bo‘lishini ta’minlab, yoshlarning ma’naviy-axloqiy barkamolligini rivojlantiradi. Oila, ta’lim muassasalari hamda ijtimoiy muhitning hamkorligi tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshiradi.

Yoshlar tarbiyasini halollik, halollik, hurmat varahm-shafqat tamoyillariga asoslash orqali biz nafaqat individual xarakterning rivojlanishiga yordamberamiz, balki o‘zaro tushunish va bag‘rikenglik asosida qurilgan ahil va barkamol jamiyatni tarbiyalaymiz. Milliy qadriyatlar axloqiy qarorlar qabul qilish uchun asos yaratadi, yosh shaxslarni umumiy manfaatni himoya qiluvchi va ijtimoiy hamjihatlikni rag‘batlantiradigan yo‘llar bilan harakat qilishga undaydi. Mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyev yangi O‘zbekistonni barpo etishda ma’naviy immunitetning qanchalar darajada zarur ekanligiga alohida e’tibor berib quyidagilarni yozadi: “Bugungi shiddatli, o‘ta murakkab zamon shuni ko‘rsatmoqdaki, bu borada faqat ta’lim-tarbiya tizimining o‘zi mavjud ma’naviy tahdidlarga qarshi turolmaydi. Bu masalaga butun jamiyatning kuch va imkoniyatlarini safarbar etmas ekanmiz, kutilgan natijaga erisholmaymiz. Chunki bugungi kunda bolalarimizni ota-ona, bog‘cha, maktab yoki institut emas, aksariyat hollarda qo‘lidagi telefon “tarbiyalamoqda”. Afsuski, ana shu kichkinagina telefon endi oddiy aloqa vositasi emas, ko‘pincha yot mafkurani targ‘ib etadigan katta qurolga, zo‘ravonlik, yovuzlik “virusi”ni tarqatadigan manbaga aylanmoqda”. XXI asr globallashuv asri bo‘lib, u dunyo miqyosida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini kuchaytiradi. Bir tomondan, globallashuv taraqqiyot uchun yangi imkoniyatlar ochib, ilm-fan, texnika, madaniyat va axborot almashinuvini jadallashtirsa, ikkinchi tomondan, u milliy o‘ziga xoslik, ma’naviy qadriyatlar va an’anaviy turmush tarzi uchun jiddiy tahdidlarni ham keltirib chiqaradi. Ayniqsa,

yoshlar orasida begona madaniyatning salbiy ta’siri, iste’molchilik psixologiyasi, axloqiy me’yorlarning buzilishi, o‘zga g‘oyalarga ergashish xavfi ortadi. Bu holat yoshlarda shaxsiy va milliy identifikatsiyaning yo‘qolishiga, ularni o‘z ildizlaridan uzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarga tayanish, ularni yoshlar ongiga singdirish milliy xavfsizlik va barqarorlikning muhim shartiga aylanadi. Fikrimizcha, qadriyat-bu tarixiy taraqqiyot jarayonida kishilar tomonidan yaratilgan, moddiy va ma’naviy boyliklar bo‘lib, u inson va insoniyat uchun ahamiyat kashf etib, ular manfaati va ehtiyojini qondirish: takomillashuvi, kelajak avlodning ijodiy o‘sishini rag‘batlantirish omilidir. “Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir. Dunyoda o‘ziga xos qadriyatlari bo‘lmagan millat yo‘q. Milliy qadriyat millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati hamda madaniyati bilan bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi”

Bizning davrimizda ta’limiy qadriyatlar, ularning tabiati, funksiyalari, o‘zaro aloqadorligi haqidagi pedagogikaning yangi sohasi – *pedagogik aksiologiya*

rivojlanib bormoqda. Chunki zamonaviy jamiyat ta’limni o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashining maqsadga yo‘naltirilgan jarayoni va

natijasi sifatida tushunishdan uzoqlashdi. Ta’lim bu insonda insoniylikni tarkib toptirishdir. Uning asl mohiyati ham ana shunda Ta’limning ma’naviyatni tarkib toptirishdagi ahamiyati uni qadriyatli bilimlarni uzatish va uning asosida insonda qadriyatli munosabat, qadriyatli xulq-atvorni shakllantirishda ekanligini o‘z vaqtida *Aflotun* ham ta’kidlab o‘tgan edi. U davlatning asosini qolgan barchasi unga bog‘liq bo‘lgan yagona birlik aks ettiradi, deb hisoblagan. Bunday asos – oliyjanoblikdir. Olim yuksak oliyjanoblik sifatida hech narsa yaxshilik va yomonlik haqida unday ma’lumot bera olmaydigan bilimni e’tirof etadi. Bilimda qanchalik oliyjanoblik o‘z ifodasini topganligini esa ta’lim jarayonida o‘rganish mumkin.

***D.J.Sharipova*** - o’z izlanishlarini yosh bolasi bor ota–onalar o’rtasida tibbiy–pedagogik bilimlarni hal qilish borasida bir qancha ishlarni amalga oshirgan. U, oilada bolaning sog’lom, yetuk bo’lib tarbiyalanishi uchun ota–ona har bir bolaning

o’ziga xos xususiyatlarini bilishi xuddi shu holat oilada bola tarbiyasiga ta’sir qilishi, oila oldida turgan tarbiyaviy vazifalarni aniq va ravshan bilish zarurligini, o’z bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlarini, tarbiyaviy ta’sir ko’rsatish chora-tadbirlarini tanlashga ijodiy yondoshuvlari lozimligini ko’rsatadi. Milliy oilaviy tarbiya zamirida shaxs milliy madaniy merosidan bahramandlik, o’z xalqi tarixi, san’ati, ma’naviy–ruhiy qadriyatlari, dinni puxta bilishlari, milliy o’zligini anglashlari, vatan, xalq, millat manfaatlari uchun ma’sullik, milliy g’urur, milliy harakterning sifat ko’rsatkichlaridir; shaxsda milliy harakterni shakllantirishda milliy ahloqiy madaniyatining ahamiyati benihoya kattadir.

Yirik psixolog olimlardan ***M.G.Davletshin*** - oilada ota–onalarning farzandlarga bo’lgan munosabatlarida o’zaro yordam, bir–birini qo’llab- quvvatlash, hamkorlikda ish olib borish, oilada mehnatni taqsimlash, xo’jalik ishlariga ko’maklashish kabi muammolar yechilmas ekan, ular o’rtasida doimiy tushunmovchiliklar, aytishib qolishuv va nizo–janjallar yuzaga kelib turishi mumkinligi to’g’risida gapiradi.Hayot jarayonida bolada shunday motivlar shakllanadiki, bu motivlar bola uchun asosiy ahamiyatga ega bo’lib, boshqa barcha motivlarni o’ziga bo’ysundiradi. Bolaning hulq-atvori va faoliyati ustidan barqaror hukmronlik qiluvchi motivlar bola shaxsining yo’nalishini barpo etadi.

Respublikada bevosita o’zbek oilalarida ota–ona va farzand, oilada aka– uka, opa–singillarning o’zaro munosabat-lari psixologiyasiga oid dastlabki ilmiy ishlar ***G’.B.Shoumarov*** va ***Ye.A.Morshininalar*** tomonidan ham amalga oshirilgan. Respublika psixolog olimlari orasida ilk bor o’zbek oilasida bir necha avlodlararo va ikki avlod: ota–ona va farzandlar o’zaro munosabatlarning o’ziga xos etnopsixologik xususiyatlari o’rganilgan va ko’p farzandlik oilaning katta yoshli a’zolariga hurmat, oilada erkak mavqyei kabilar va bularning bola shaxsiga ta’siri yoritib berilgan.

Shuningdek, ***G’.B.Shoumarovning*** so’nggi o’n yilliklar davomida chop etilgan ishlarida o’zbek oilasida ota–ona va farzandlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlar xususiyatlariga alohida e’tibor berilgan.

Shu bilan bir qatorda, psixolog olim ***M.G.Davletshin*** *va* ***G’.B.Shoumarovlar*** hozirgi zamon o’zbek oilasining xususiyatlarini o’rganish chog’ida, uning o’ziga xos jihatlaridan biri bo’lmish oiladagi farzand soni, uning ijtimoiy mavqyeiga ta’sirini hamda ota–onaning farzandlari ulg’ayib, kamol topib borishi orqali o’zlari yashab turgan ijtimoiy muhitda, mahalla–ko’y orasida obro’si, hurmat–e’tibori ulug’lana borishini ta’kidlaydi.

O‘zbek oilalaridagi o'zaro hurmat, ehtirom, ota-onaga e’zoz, farzandlarga mehr-shafqat va kichiklarga izzat-ikrom kishini barkamol inson, mukammal shaxs sifatida shakllantiradigan, axloqiy va ma’naviy jihatdan go'zal hamda yetuk qiladigan, insoniy fazilatiarni rivojlantiradigan qadriyatlar bo'lib hisoblanadi. Va bu qadriyatlarning mazmun-mohiyati farzandlar ongiga dastlab oilada singdiriladi.

Oilada ota-onalarimizning zimmasida bolalarni sharqona uslubda tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizni kundalik hayotga tadbiq etish, yoshlar qalbida imonu-e’tiqod, insofu-diyonat kabi sifatlarni tarbiyalash kabi vazifalar turibdi. Oiladagi sog'lom ijtimoiy-ma’naviy muhit bolalarda izlanishga, tashabbus ko'ratishga va ijodkorlik qobilyatlarini namoyon etishga imkon yaratadi. Ota- onalar esa bola rivojlanishi qanday kechayotganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishlari va doimiy ravishda uni nazorat qilib borishlari zarur bo'ladi. Oila shaxsning g‘oyaviy, siyosiy, iqtisodiy qarashlarini shakllantiruvchi, tevarak- atrofga, dunyoga munosabatlari tizimini, ya’ni dunyoqarashi, e’tiqodi, ehtiyojlari, qiziqishlari, ideallari, motivlari, hayotiy maqsadi yo'nalishini belgilovchi jamiyatning eng kichik bo'gini sifatida muhimdir. Ota-onalarning ta’lim vazifalari sifatida bolalarga muhabbat, ulardan faxrlanish ota bilan ona o'rtasida teng bo'linadi: “Ota qizini yaxshi ko'radi, o'g'li bilan g‘ururlanadi, ona o'g'lini yaxshi ko'radi, qizi bilan faxrlanadi”. Maqolda ota va onaning o‘z bolalari tarbiyasi uchun mas’ulliklari alohida qayd etilgan, ularning ta’lim vazifalari farqlab berilgan, ya’ni oilada qulay axloqiy muhitni ko'zda tutuvchi muhabbat, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi samimiy munosabatlar ko'proq tarbiya sharoitlariga tegishli boladi, faxr esa uning natijasidir.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning shakllanishida, shaxs ma’naviyatining tarkib topishi va rivojlanishida oila va qadriyatlarning o'rnini, ahamiyatinini hech narsaga tenglashtirib bo'lmaydi. Agar oila ma’nosiz hayot kechirsa,qadriyatlarimizga bepisand bo’lsa, faqat shaxsiy huzur-halovati bilan mashgul bo'lsa, oilada rahmsizlik va xudbinlik hukm surayotgan bo'lsa, bularning hammasi bolaning ma’naviy qiyofasiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi, albatta. Shu sababli ota-onalar uchun oila tarbiyasi, milliy qadriyatlar avvalo o'z-o‘zini tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i kerak. Ota-onalarning yuksak ijtimoiy ongi bolalarda ham shunga mos ong tarkib topishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. -Toshkent, 2021. - 9-bet

2. Tinchlik va bag‘rikenglik izohli lug‘ati.-T.: 2005, B -103-104.

3. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1), 537-544.

4. Hamroyeva, O. F. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARINI KASBIY-KOMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(4), 985-991.

5. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1), 537-544.

6. Hamidovna, M. K. (2023). ABU NASR FOROBIYNING TA’LIM-TARBIYA BERISHGA OID PEDAGOGIK QARASHLARI. Journal of new century innovations, 35(1), 71-73.

7. Xoliqova I.B.( 2025) “Pedagogik qadriyatlar asosida o’quvchilarni tarbiyalash mexanizimlari”. Interdiscipline innovation and scientific research conference.GREAT BRITAIN online conference. 303-307-b.